

O'QUVCHILARNING KASBIY MA'NAVIYAT HAQIDAGI BILIM VA TASAVVURLARINI KENGAYTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARNING ROLI

Mutallibjonov Ma'rufjon

Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning kasbiy ma'naviyat haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishda zamonaviy innovatsion yondashuvlarning roli tahlil qilinadi. Kasbiy ma'naviyatning mohiyati, o'quvchilarda axloqiy va professional qadriyatlarni shakllantirish usullari, shuningdek, interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi yoritiladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kasbiy ma'naviyat, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, o'quvchi kompetentligi, ta'lim jarayoni.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В РАСШИРЕНИИ ЗНАНИЙ И ПРЕДСТАВЛЕНИЙ УЧАЩИХСЯ О ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРАВСТВЕННОСТИ

Муталлибжонов Маруфжон

Национальный институт педагогики образования
имени Кори Ниёзии, Аспирант

Аннотация: В статье анализируется роль современных инновационных подходов в расширении знаний и представлений учащихся о профессиональной нравственности. Рассматривается сущность профессиональной нравственности, методы формирования моральных и профессиональных ценностей у учащихся, а также эффективность применения интерактивных и инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова и понятия: профессиональная нравственность, инновационные подходы, педагогические технологии, компетентность

учащихся, образовательный процесс.

THE ROLE OF MODERN INNOVATIVE APPROACHES IN ENHANCING STUDENTS' KNOWLEDGE AND PERCEPTIONS OF PROFESSIONAL MORALITY

Mutallibjonov Marufjon

National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyozii,
PhD student

Abstract. The article analyzes the role of modern innovative approaches in enhancing students' knowledge and perceptions of professional morality. It examines the essence of professional morality, methods for developing students' ethical and professional values, and the effectiveness of using interactive and innovative pedagogical technologies.

Key words and concepts: professional morality, innovative approaches, pedagogical technologies, student competence, educational process.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodda kasbiy ma'naviyatni shakllantirish, ularning axloqiy, ijtimoiy va kasbiy qadriyatlar tizimini boyitishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning kasbiy ma'naviyat haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy ma'naviyat - bu shaxsning o'z kasbiga, mehnat jarayoniga, hamkasblariga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli, vijdonli, halol va fidokorona munosabatini ifodalovchi ichki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar majmuidir. U o'qituvchi, shifokor, muhandis, huquqshunos yoki boshqa har qanday kasb egasining professional yetukligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning kasbiy faoliyatidagi axloqiy me'yorlarni belgilaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni faqat nazariy bilim bilan cheklab bo'lmaydi. Kasbiy ma'naviyatni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya vositalari va loyihaviy ta'lim metodlari keng qo'llanilishi lozim. Chunki bu yondashuvlar o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil ifoda

etish, muammoni tahlil qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy innovatsion shakllar.

1. **Interfaol o'yinlar va treninglar** – o'quvchilarda kasbiy muhitda axloqiy qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlash malakasini shakllantiradi.
2. **Keys-stadi (muammoli vaziyatlar tahlili)** – kasbiy axloq me'yorlarini amaliy misollar orqali o'rganishga imkon beradi.
3. **Raqamli platformalar va onlayn muhitlar** – kasbiy qadriyatlarni targ'ib etuvchi virtual treninglar va simulatsiyalar orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.
4. **Loyihaviy o'qitish** – o'quvchilarni kasbiy sohada dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirib, ularni mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasiga tayyorlaydi.

O'qituvchi bu jarayonda asosiy boshqaruvchi va yo'naltiruvchi shaxsdir. Uning kasbiy ma'naviy namunasidan o'quvchilar ilhom oladi. Shuning uchun o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki axloqiy-ruhiy yetakchi sifatida o'z ustida doimiy ishlashi, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq eta olishi lozim.

Pedagogik faoliyat jarayonida kasbiy ma'naviyatga ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Bunda kasbiy faoliyatni rivojlantirish mutaxassis o'zini tahlil qilish va baholash jarayonida aniqlanadi.

Hazrat Navoiyning "Nasoyim-ul-muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning kasbiy faoliyatida sharqona xislat va fazilatlari batafsil sanab o'tilgan. Bu xususiyatlar - halol luqma bilan qanoatlanish, shariat qoidalariga rioya etish, muloyim tilli, saxiy, sadoqatli, vafoli bo'lishdan iborat, deb xisoblagan¹. Har bir kasbning o'ziga xos tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila qladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib, shu kasbni egallashga intiladi. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson ma'naviyati bilan ham bog'liq ijtimoiy voqelikdir. Insoniyat hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirish

¹ Alisher Navoiy. Asarlar. 1-15-jildlar. – Toshkent, 1987-1990.

davomida yangi kasblar ham paydo bo‘lib boradi. Masalan, Olimlarning ta’kidlashicha bugun dunyoda 40 mingdan ziyod kasblar mavjud².

Pedagogik tadqiqotlar olimlarning asarlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarda ijobiy psixologik muhit yaratadi, ularning ma’naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlaydi. Shuningdek, UNESCOning “Education for Sustainable Development” konsepsiyasi ham ma’naviy va kasbiy tarbiyani integratsiyalashgan yondashuv asosida olib borishni tavsiya etadi.

So‘rovga asoslangan ta’lim (IBL). IBL metodlari o‘quvchilarni ilmiy tadqiqotchi sifatida mustaqil izlanish, kuzatish va tahlil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod nafaqat kasbiy bilimlarni oshiradi, balki o‘quvchilarning mas’uliyat hissi, analitik tafakkuri va kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi (UNESCO, 2021).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (ICT). Virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar va onlayn simulatsiyalar o‘quvchilarga kasbiy vaziyatlarni amaliyotda sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasini oshirib, kasbiy kompetentsiyani rivojlantiradi (Sharipov, 2020).

Kasbiy ma’naviyat fanidan dars berish jarayonida o‘qituvchi lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan “Keys-stadi”, “Tushunchalar tahlili”, “Loyiha”, “Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi³. Kasbiy ma’naviyat darslarida mavzu mazmunidagi muammoli masalalarni o‘qitishda “Keys-stadi” hamda “Muammoli izlanish” metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kasbiy ma’naviyatga oid tasavvurlarni boyitishda innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Bu orqali nafaqat kasbiy malakali, balki ma’naviy barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar shakllanadi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish esa o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, professional o‘sishi va milliy qadriyatlar

²M. Quronov va b.Tarbiya, 6-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020 yil 57-bet.

³ Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - Toshkent: Moliya, 2003.

asosida kamol topishiga xizmat qiladi. O'quvchilarning kasbiy ma'naviyatini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar bilan bevosita bog'liq. Tadqiqotlar va olimlarning ilmiy asarlari shuni ko'rsatadiki, kasbiy ma'naviyat shaxsning o'z kasbiga, jamiyatga va mehnat jarayoniga nisbatan axloqiy va mas'uliyatli munosabatini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan interfaol metodlar, loyihaviy o'qitish, so'rovga asoslangan ta'lim (IBL) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (ICT) o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatni shakllantirishning samarali vositalari sifatida ilmiy asos bilan tasdiqlangan. Interfaol metodlar o'quvchilarga murakkab kasbiy vaziyatlarni xavfsiz muhitda sinash imkonini beradi, loyihaviy o'qitish esa ularni real hayotiy muammolarni hal qilishga jalb qiladi. Shu bilan birga, IBL metodlari o'quvchilarning mustaqil izlanish, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning analitik tafakkurini va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. ICT vositalari esa o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirish orqali kasbiy kompetentsiyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Qayta tahrir, 2020-yil, 23-sentabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori. PQ-3955-son, 2018-yil 27-mart.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
4. Qodirova R. *Kasbiy tayyorgarlikda ma'naviy qadriyatlarning o'rni*. – T.: TDPU ilmiy jurnali, 2021, №1.
5. Husanov M. *Pedagogik jarayonda kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish metodikasi*. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2020.
6. Vahobova N. *Milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy darslar metodikasi*. – T.: O'qituvchi, 2022.